

BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING TA'LIM - TARBIYA JARAYONI SIFATINI OSHIRISH MEXANIZMLARI

Jumayeva Muxlisa Shokir qizi

Toshkent davlat pedagogika universiteti 1-kurs doktoranti

Annotatsiya:

Ushbu tezisdagi boshlang'ich sinflarda darslarni olib borishda pedagoglar tomonidan pedagogik texnologiyalar, yangi interfaol uslublar, turli yondashuv va keng qamrovli fikrlashni talab etadigan vaziyatlardan foydalanishlarining ijobiy ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, turli vaziyat turlaridan metodlardan namunalar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetentlik, pedagogik kompetentlik, kasbiy malaka, pedagogik texnologiya, kompetentlik sifatlar, texnologik kompetentlik, shaxsiy kompetentlik, kasbiy-metodik mohirlik layoqat, qobiliyat, samaradorlik, rivojlanish.

Аннотация:

В данной дипломной работе освещается положительное значение использования педагогами педагогических технологий, новых интерактивных стилей, ситуаций, требующих разнообразного подхода и комплексного мышления при проведении уроков в начальных классах. Также были освещены примеры методов из разных типов ситуаций.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, педагогическая компетентность, профессиональная квалификация, педагогическая технология, компетентностные качества, технологическая компетентность, личностная компетентность, профессионально-методическое мастерство, их управление, менеджмент, с участием.

Annotation:

In this thesis, when conducting classes in elementary grades pedagogical technologies by educators, new interactive methods, from situations that require different approaches and comprehensive thinking the positive importance of their use has been highlighted. Also different situation samples from the types of methods are illuminated.

Key words: professional competence, pedagogical competence, professional qualification, pedagogical technology, competence qualities, technological competence, personal competence, professional-methodical skill, their management, management with.

Jahon ta'lim tizimida innovatsion rivojlanish tendensiyalariga mos ravishda boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning ta'lim va tarbiya samaradorligiga yo'naltirilgan ilg'or yondashuvlari va texnologiyalarini tatbiq etish amaliyoti keng joriy etilgan. Ayniqsa, o'qituvchilarning vaziyatli yangiliklar kiritishga munosabatini eksperimental o'rganish orqali ta'lim-tarbiya jarayonining pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Dunyoda boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining vaziyatli yangiliklar kiritishga munosabatini eksperimental o'rganish texnologiyasini takomillashtirish va bu borada ta'lim jarayonlariga kompleks yondashuv asosida didaktik kompetensiyalarni tarkib toptirishning innovatsion-pedagogik modellarini ishlab chiqish, ayniqsa maqbul diagnostik vositalarni modifikatsiyalash orqali didaktik jarayonlarning pedagogik imkoniyatlarini kengaytirish, ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini rivojlantirish, ularni ijtimoiy hayotga moslashtirish masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Vaziyat – voqealari to'plami boshlanishini insonning qabul qilishi va faoliyatiga ochiladigan hayotiy sharoit va holatlari o'tishining bir amalligi va takrorlanmasligidir.

Ideal aniq vaziyat - qandaydir (biznes, marketing yoki boshqa) faoliyatining biror qiziqarli tarixi yoki ushbu faoliyat tarixidan joy olgan, yechish talab etiladigan boshqotirma; tahlili eskirgan va qo'shimcha axborot izlash talab etiladigan axborotlarning ko'pligi; kelajakda vaziyatning davomini berishga qodir bo'lgan dolzarb muammo; eng asosiysi qaralayotgan masala "nazariyasi" bilan ustma-ust tushadigan vaziyatdan iborat bo'lib, katta yoki kichik(mini ham bo'lishi mumkin) keysda qo'yilgan muammoni yechishga turtki beradigan savollar to'plamini o'z ichiga olishi zarur.

O'qitish amaliyotida vaziyatlarning: standart, kritik, ekstremal va shu kabi turli ko'rinishlari foydalaniladi.

Standart vaziyat – qandaydir darajada tipik bo'lib, har xil vaziyatlarda tez- tez takrorlanadi; har xil manbalar sabablarga ega; u salbiy ham, ijobiy ham tabiatga ega bo'lishi

Kritik vaziyat- tirik bo'lmagan, odatda, kutilmagan, avvalgi hisob-kitobni, rejani buzadi; belgilangan me'yorlarni, tartibni, qoidalar, qadriyatlar tizimini buzishi mumkin; material va axloqiy ziyon yetkazishi hamda sog'liq, ekologiya uchun zararli bo'lishi mumkin; tezchan va keskin aralashishni, mezonlarni, nizomlarni, me'yorlarni ko'rib chiqishni talab etadi.

Ekstremal vaziyat (yoki favquloddagi hodisa) – ajoyib, o'xshashi bo'lmagan qandaydir obyektlarni, jarayonlarni, qarashlarni, munosabatlarni salbiy ba'zan esa buzg'unchi o'zgarishlarga olib keladi; o'zidan keyin material, jismoniy va axloqiy yo'qotishlarni olib keladi; rejalashtirilmagan va ko'zda tutilmagan material va insoniy ashyolarni jalb etishni talab etadi; keskin harakatlarga, noan'anaviy yechimlar qilishga,

yordam qilishga: masalan, yer qimirlashi, yong'in, suv toshqini, bo'ron, vulqon otilishi, ko'chkilardan murojaat qilishga undaydi.

Vaziyatli masalalar muammoli masalalarga ancha yaqin va u faoliyat uslubini aniqlash hamda tushunishga qaratilgan. Vaziyat masalalarini yechish mobaynida boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi va o'quvchilar turli: o'quvchi uchun - berilgan vaziyatlarga mos yechimni topish, o'qituvchi uchun - faoliyat usulini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi va uning mohiyatini tushunishi zarur.

Vaziyatli masalalar o'quv jarayonida ham, sinfdan tashqarida ham foydalanilishi mumkin, chunki umumiy ta'lim maqsadlariga ko'ra vaziyatli masalalar ushbu maqsadlarning ixtiyoriysini amalga oshirish uslubi sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Ko'pgina vaziyatli masalalarning yechimi jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlarni ifoda etuvchi aniq vaziyatlarning tahlili bilan bog'liq. Bu vaziyatlar nafaqat o'quvchilarga, balki boshlang'ich ta'lim o'qituvchisiga ham yangi bo'lishi va o'z o'rnida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabat tabiatini o'zgartirishi mumkin. An'anaviy o'quv jarayonida o'qituvchi "biladi", o'quvchilar "bilmaydilar" tamoyili hukm suradi. Vaziyatli masalalarni hal etishda, esa o'qituvchi va o'quvchi birgalikda muammoni yechishni o'rganayotgan teng huquqli hamkor sifatida chiqadilar. Shunday qilib, vaziyatli masalalarni hal etish mobaynida, o'qituvchi to'g'ri javob manbai sifatida emas, balki o'quvchiga "yordam beruvchi" inson sifatida chiqib o'quv-tarbiya jarayonidagi o'qituvchi-o'quvchi munosabatini o'zgartirishga olib kelinmoqda.

O'qitishning o'ziga xos maqsadlariga bog'liq ravishda keyslar unga taqdim etilgan material mazmunini va tashkil etilishiga ko'ra juda turli-tuman: tahlil va baholashga o'rgatish keyslari; muammoni yechish va qaror qabul qilishga o'rgatuvchi keyslar; muammoni yechimni yoki umuman konsepsiyani namoyish etadigan keyslar bo'lishi mumkin. O'quv muammoli vaziyat (o'quv keysi) tashkil etishning maqsadi auditoriyada aniq bir muammoli vaziyatni mavjud imkoniyatlar va tavakkallikni hisobga olgan holda muqobil yechimlarni muhokama qilish orqali qarorlar qabul qilish muhitini yaratishdan iborat.

Keys usulini samarali qo'llash o'quv guruhiga muammoli vaziyatni muhokama qilish imkoniyatini berish orqali talabalarning anglash faoliyatini faollashtiradi, o'z bilimini va g'oyasini mujassamlashtirish, muhokama jarayoni va mazmunini kuzatish uchun sharoit yaratadi.

Ma'lumki, o'qitishning dastlabki bosqichlarida o'quvchilar juda ham faol bo'lmasdan o'z fikrlarini ochiq bayon etishga qodir bo'lmaydi. Bunday to'siq talaba uchun qarashlari va fikrlarini guruh yoki o'qituvchi tomonidan tanqidga uchrashi mumkinligidan xavfsiragan holda ma'lum qiyinchiliklar tug'diradi.

Ko'pincha shunday hollar bo'ladiki, boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi vaqtning tig'izligi tufayli o'quvchilar bilan suhbat-muloqot yoki to'liq savol-javob o'tkaza olmaydi. Ana

shunday hollarda zamonaviy pedagogik texnologiya usullaridan biri bo'lgan keys usuli aynan qo'l keladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda №997 sonli "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori / "Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi", 10.12.2018 y., 09/18/997/2289-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 aprelda "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni / "Qonun hujjatlari milliy ma'lumotlari milliy bazasi", 06/19/5712/3034-son.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent, "Xalq so'zi" gazetasi, 2017, 15 yanvar.
4. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri / Tuzuvchi M.Mahmudov. – T.: Meros, 1993. – 315 b.
5. Atkinson J.W. An Introduction to Motivation – Princeton, N.J.: Van Nostrand, 1964. – P. 112-114.